

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA G'UZOR BEKLGIDA MEHNATKASH XALQ OMMASINING AHVOLI VA XALQ QO'ZG'OLONLARI

Jo'raev Abduqayum Ortiqovich,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
abduqayum.joraev.68@mail.ru
ORCID: 0009-000-5325-8427
UDK: 950 (575.0)

Annotatsiya

Maqola XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida G'uzor bekligida yashovchi mehnatkash xalqning iqtisodiy ahvoli, qishloq xo'jaligi, dehqonlarning amirga to'laydigan turli xil soliqlari va fuqarolarning amirga to'lanadigan soliqlardan norozi bo'lib yozgan xatlari, xalq qo'zg'olonlari arxiv xujjatlari va tarixiy manbalar orqali yoritib berilgan.

G'uzor tumanining uzoq o'tmishdan to hozirgi vaqtgacha bosib o'tgan tarixiy jarayonlari hikoya qilinadi. G'uzor tarixi kitobida G'uzordan o'tgan qadimgi "Shoh yo'li", "Lojuvard yo'li", "Buyuk karvon yo'li" kabi savdo yo'llarining shu tuman hayotida tutgan o'rnini, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etganligi ko'rsatiladi.

O'quv qo'llanma xalqimiz tarixi, uning bosib o'tgan sharaflari yo'lini O'zbekiston tarixining ajralmas qismi bo'lgan G'uzor tuman tarixi asosida ko'rsatib beradi. Kitobda miloddan avvalgi davrda Aleksandr Makedoniskiyning yurishlari, undan keyingi davrlar, Kushon podsholigi, Turk hoqonligi, arablar bilan bo'lgan qonli janglarni tumandagi Subah qal'asi atrofidagi voqealar va undan keyingi tarixiy jarayonlarda yuz bergan voqealar, Mo'g'ullar istilosi, Amir Temur davri, Shayboniyxon bosqini, Mang'itlar sulolasi davrida G'uzor bekligi, Rus bosqini, Sovet davri, Mustaqilligimiz yillarida amalga oshirilgan tarixiy jarayonlar aks ettirilgan.

Tayanch so'zlar: Qushbegi, ruc hukumati, sipohlar, bek, darg'alar, mirzalar, xiroj, sarkor, kafsar, "qo'sh puli", "tanobona", aminona, "paysher", aminona, natura, mardikorlikka olish.

Introduction

Kirish

G'uzor bekligi bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalardan ma'lumki Buxoro amirligida katta mavqega ega bo'lgan, siyosiy va harbiy jihatdan nazoratda turadigan hudud sanalgan. Beklik o'sha paytlarda hozirgi Qamashi va Dehqonobod tumanlarining juda katta hududini o'z ichiga olgan bo'lib, Sharqiy Turkistonni boshqarishda katta nufuzga ega bo'lgan boshqaruv markazi sanalgan.

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology)

G'uzor bekligi qadimdan shunday jug'rofik hududda joylashganki barcha karvon yo'llari shu yerda tutashgan. Mamlakatni shimol va janub bilan bog'lab turadigan beklik bo'lgan. Shuning uchun Buxoro amirligi tashkil topgach harbiy va iqtisodiy jihatdan amirlik boshqaruvida o'z

o'rniga ega bo'lgan bu beklikni Buxoro amirining farzandlari navbatma-navbat boshqarishgan. Beklik siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan maskan sanalgan.

Natijalar va muhokama. (Results and Discussions)

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida, Buxoro amirligida bo'lgani kabi, G'uzor bekligida ham xalq og'ir ahvolda kun kechirar edi. Beklikda aholining asosiy qismi dehqon, chorvador va kosiblardan iborat bo'lib, ularni bek, davlat xizmatidagi kishilar (sipohlar), savdogarlar, sudxo'rlar, boylar va ruhoniylar ayovsiz ezib kelayotgan edilar.

Buxoro amirligida bo'lgani kabi, G'uzor bekligida ham xiroj usuli juda murakkab edi. Mahalliy beklar va Buxoro devonbegisining taqdimiga binoan amir har bir tumanga sarkor tayinlab, xiroj undirishni shu maxsus yorliq bilan sarkorga topshirar edi. Sarkor huzurida darg'alar, mirzalar va ularni qo'riqlab turuvchi yigitlar bo'lardi. Mirzalar dehqonlar ro'yxatini tuzib chiqardilar. Har bir yerda xiroj undirishni darg'alar bajarardi.

Beklikning mahalliy moliya mahkamasi xodimlari amir xazinasidan muayyan maosh olmas edilar. Ularning ehtiyoji uchun maxsus ravishda qo'shimcha soliq - kafsan undirib olinardi. Soliqlarni to'plashda amin va oqsoqollar, shuningdek bek va ruhoniylar vakillari qatnashar edilar. Xiroj to'plashda juda ko'p kishilar ishtirok etardi. Ular xizmatlari evaziga boylardan sovg'alar olib turganlari sababli, kambag'al dehqonlardan mumkin qadar ko'proq xiroj undirishga harakat qildilar.

Har yili mart oyining boshida sarkor mirza va tanobchi bilan birga dehqonlarning yerlarini o'lchash hamda "qo'sh puli" va "tanobona" deb atalgan pul rentalarini undirish uchun dalalarga chiqib ketar edilar.

G'uzorda yashovchi barcha fuqarolar qatori rus fuqarolari ham XX asr boshlarida amirga zakot va aminona to'lardilar.

1913 yil fevral oyida G'uzor bekligida yashovchi rus fuqarosi Kanagatov amir qushbegisiga telegramma yuborib, quyidagilarni ma'lum qiladi: u qushbegidan zakot va aminona to'lash yoki to'lamasliklarini oydinlashtirib berishni iltimos qiladi, biroq rus fuqarolari aminona to'lovidan ozod etilganini ilova qiladi [1].

Kanagatovning murojaatida shahar qozisi uning aminona to'lashi yoki to'lamasligi uchun qushbegi hukmini kutayotganini ta'kidlaydi. Shuning uchun bu masalani oydinlashtirib, G'uzor bekligida yashovchi rus fuqarolari faqat zakot to'lagani holda, aminonadan ozod qilinishini iltimos qilib o'tadi.

G'uzor bekligida ham, boshqa bekliklarda bo'lgani kabi, g'alla va boshqa ekinlar pishib yetilayotgan bir paytda darg'alar dehqonlarning yerlari tepasiga kelar va hosilning miqdori qancha bo'lishini oldindan hisoblar, alohida daftarga yozib qo'yardi.

Dehqonlar g'allani o'rib, bog'lab qo'yganlaridan keyin darg'alar yana kelib, g'allani yanchishga kirishish to'g'risida tegishli ko'rsatmalar berar va hech bir dehqon xirmondan hech nima olib ketmasligi lozimligi to'g'risida qat'iy ogohlantirar edi. Darg'alarning talabini zarracha bo'lsa-da bajarmaslik og'ir jinoyat hisoblanar edi. Bunday hollarda ko'pincha hosil butunlay musodara qilinardi.

Don yanchilib bo'lgandan keyin, darg'a don uyumining ustiga va xirmonning to'rt tomoniga alohida belgilar qo'yib chiqardi. Dehqon xo'jaliklarining hammasida g'alla yanchilib bo'lgandan

keyin xiroj miqdorini belgilashga kirishilardi. Ba'zan bu miqdor g'allani tortib ko'rilmay, ko'z bilan mo'ljallab belgilanardi. Dehqonlar qancha xiroj to'lashi kerakligi "paysher" deb atalgan alohida daftarga yozib qo'yilardi.

Bundan tashqari dehqonlar mahalliy amaldorlar va zakotchilar foydasiga kafsan, mushtak, tavajju va shu kabi boshqa xil soliqlar to'lanardi. Kafsan sarkor foydasiga, mushtak esa amin, oqsoqol, qozi va imom foydasiga olinardi. Mana shu soliqlarning hammasi to'langach, dehqon qo'lida hosilning ozgina qismi qolardi.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab asosan paxta, qorako'l, jun va dondan aminona deb atalgan yangi soliq olina boshladi. Bu soliq Rossiyaga olib ketiladigan va boshqa davlatlardan Buxoroga olib kelinadigan mollar qiymatining 1,5 qismi miqdorida olinadigan bo'ldi.

G'uzor bekligida ham yahudiylar va hindulardan olinadigan, juz ya deb atalgan soliq turi ham bor edi. Buxoroda bo'lgani kabi, G'uzor bekligida yahudiylar ham aholining eng huquqsiz va mazlum qismi hisoblanardi. Bu yerda bek va bek amaldorlari amirlikda g'ayridinlarga qarshi olib borilayotgan siyosatni davom ettirib, yahudiylarga soliqlar solish bilangina kifoyalanib qolmasdan, ularni g'ayridindagi o'zga millat deb qattiq ta'qib ham etardilar.

G'uzor shahrida yahudiylar alohida mahallada istiqomat qilishardi[2] Ular g'ayridin ekanliklarini bildirib, bo'yinlariga arqon bog'lab yurishlari lozim edi. Har bir kishi yahudiyning hovlisini musulmonning hovlisidan farq qila olishi uchun barcha yahudiylar hovlisiga, asosan hovlisi eshigiga bir bo'lak chirik latta osib qo'yilar edi. Yahudiylar siyosiy huquqlardan mahrum bo'lib, mulkiy huquqlardan ham to'la foydalana olmas edilar. Ularning yer-suv sotib olishlari va o'z mahallalarida yangi imorat qurishlari ta'qiqlab qo'yilgan edi.

1889 yil G'uzor viloyatining Ko'kbuloq mavzeida yashovchi dehqonlar barcha soliqlarni pul bilan emas, balki natura bilan to'lashni talab qilib chiqdilar. Ularning talabini hisobga olgan Shohto'raboy, Rahimboy va yerlik Norboy dehqonlarning talabini hisobga olgan holda amirga xat yo'lladi. Xatda dehqonlarning barcha soliqlarni avvalgidek natura holida to'lash haqidagi talablari bildirilgan edi. G'uzor viloyati dehqonlari hattoki natura bilan yig'iladigan soliqlar uchun omborxona ham qurib berishdi[3].

Hukm surib kelayotgan patriarxal feodal tuzum iqtisodiyoti XIX asrning oxirlarida inqirozga uchray boshladi va uning o'rnini yangi ishlab chiqarish munosabatlari egallab bordi.

G'uzor bekligida o'n uch yil mobaynida soliq tizimini kuzatib borgan Hoji O'roq xalqning amirlikka soliqlarni pul bilan emas, balki avvalgidek natura bilan to'lamoqchi bo'lganliklarini, yangi soliq tizimi nimalarga olib kelganini 1883-1884 yillarda yozib qoldiradi. Uning qo'lyozmalari muhriga e'tibor beradigan bo'lsak, ular 1883 yildan ham ancha avval yozilganining guvohi bo'lamiz.

"Oqsoqollar, otaliqlar xalq bilan yig'ilib, - deb yozadi Hoji O'roq, - biz qadimgidek barcha soliqlarni natura bilan to'lashni yoqlab chiqamiz, deb ta'kidlashar edi"[4].

Dastlab, Yakkabog' hokimlaridan biri Abdurahimbiy, G'uzor viloyatidan yig'ilgan barcha g'allalarni tashib ketishi qiyin bo'lganligi tufayli, xalqdan buning o'rniga soliqni pul bilan to'lashni talab qilgan edi. Bunga ham o'n uch yil bo'ldi. Natijada bu soliq tizimidan qattiq norozi bo'lgan xalq 1870 yil G'uzor viloyatida g'alayonga kelgan edi. Oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa-da, baribir, hozir ham xalq soliqlarni pul o'rniga natura bilan to'lashni oson deb biladi. Shuning uchun barcha joylarda g'allani saqlash uchun xalq omborlar qurib bermoqda.

Qushbegi arxivining yana bir hujjatida qayd etilishicha, G'uzor dehqonlari 1 botmon don uchun 18 tanga, bir botmon arpa uchun 12 tanga miqdorida soliq to'lashdan bosh tortadilar. Chunki bu mahsulotlar bahosi bozorda 1-2 tanga yuqori narxda edi[5] .

Buxoro amiri tomonidan viloyatlarga tayinlangan beklar o'z viloyatida katta imtiyozlarga ega edilar. "Mulki huri xolis" deb atalgan katta yerlar egasi bo'lgan beklar amirdan keyin ikkinchi o'rinda turar va shu yerdan hukmdor tariqasida hech bir soliq to'lamay foydalanar edilar.

Ularning huquqlari amir tomonidan belgilab qo'yilardi. Chunonchi, farmonlardan birida bunday deyiladi: "Ular tarhonlar bo'lgaykim, men ularni jamiki doimiy va muvaqqat soliqlardan, shuningdek amolat, qunarga va qoraqunoq va hatto 32 majburiyatning hammasidan darhon qilib qo'ydim. Ular soliqlardan tamomila xalos bo'lgaylar; ularga hech kim va hech qachon aziyat bermagay: ulardan hech kim har yilgi soliq shahodatlarini talab qilmagay: ularning haq-huquqlari buzilmagay. Bizning bu ra'imiz (talabimiz)dan xabardor bo'linglar" [6].

Beklikda musulmon ruhoniylar vaqf yerlarning bevosita egasi bo'lib qolgan edilar. Tokzor, ekinlar, muayyan miqdordagi pul, asbob va ustaxonalar, tegirmonlar, objuvozlar, maktab, madrasa, kutubxonalar muassasa va tashkilotlarga berilishi mumkin edi. Bunday yerlardan ruhoniylar katta miqdorda daromad soliqlari olib turishardi va hisob-kitob masalalarida amirga xabar berib turishardi.

Misol uchun, noma'lum muallifning amirga xabar berishicha, Turdiqulbek Miroxur qozi bilan birgalikda G'uzor viloyatining O'rai Kalon mavzeidagi hasbar o'simligi qancha hosil berishini hisoblab chiqqan[7].

G'uzor bekligida vaqf yerlardagi dehqonlardan olinadigan soliqlarning hammasini mutavalli undirardi. Ba'zan mutavalli vaqf yerlarini ijaraga berib, unga butunlay xo'jayin bo'lib olar va dehqonni istaganicha ezardi.

Beklikda og'ir hayot kechirayotgan xalqning asosiy qismini dehqonlar tashkil qilardi. Shahardagi quyi tabaqalar kabi ular ham "fuqaro" deb atalardi. Dehqonlar ijaraga olgan yerlariga umrbod xiroj to'lardilar. Bunday yerlar otadan bolaga meros bo'lib o'taverardi. Ijaraga olingan yerlar juda kichkina bo'lib, ko'pincha 1-4 desyatinadan oshmas edi.

G'uzor bekligi XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi juda ko'plab tarixiy voqealarni boshidan kechirdi. Chorjo'y, Sherobod, Hisor, Shahrisabz, Kitob kabi yirik bekliklar qatori G'uzor bekligi ham amirlikning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida o'z mavqeiga ega bo'lgan. XIX asr ikkinchi yarmida G'uzor bekligi aholisining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shahar markazida esa mayda hunarmandchilik: kosibchilik, etikdo'zlik, temirchilik, zardo'zlik, kulolchilik, sandiqsozlik keng rivoj topgan. Shu bilan bir qatorda shahar aholisining bir qismi savdo-sotiq bilan ham shug'ullangan.

Buxoro amirligining qoloq ishlab chiqarish usuliga tayanganligi, aholidan yig'ib olinadigan soliqlar miqdori aniq belgilanmaganligi, bek va amaldorlar tomonidan yangi-yangi soliqlarning joriy etilishi shunday ham nochor xalqning boshiga og'ir kulfatlar keltirdi.

XIX asrning 70-90 yillarida turli xil soliqlar soni 90-100 turdan ham oshib ketdi. Soliqlar soni shunday ko'payib ketgan ediki, ularni sanab sanog'iga yetish qiyin edi. Yer solig'i, daraxtlar uchun, mol uchun, uy-joy uchun, kanal, yer qurilishi, qo'rg'onlarni qayta qurish va hokazolar shunday soliqlardan edi.

G'uzor bekligida soliqlar ko'pligi tufayli xalqning turmush darajasi pastlab ketishi va yomonlashuvi g'alayonlarga sabab bo'la boshladi[8].

XIX asrning 60-yillarida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy voqealar to'liqini G'uzor bekligi ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

1860, 1867, 1868, 1870 yillarda yuz bergan qurg'oqchilik xalq ahvolini nihoyatda og'irlashtirib yubordi. Bu vaziyatdan yaxshi foydalana olgan G'uzor to'rasi, Buxoro amirining katta o'g'li Abdumalik - "Katta to'ra" - o'ziga nohaq tuhmat uyushtirganlarga va shu vaziyatda Buxoro amirligi sarhadiga bostirib kirgan rus bosqinchilariga qarshi xalq harakatiga boshchilik qildi.

XX asr boshida jahonda yuz bergan tarixiy va siyosiy voqealar Buxoro amirligini ham chetlab o'tmadi. Birinchi jahon urushining boshlanishi, inqilobiy harakatlar amirlikni talvasaga sola boshladi. Soliqlar soni keskin oshdi, zulm va zo'ravonlik kuchaydi.

Ruc hukumati 1916 yil 25 iyunda qabul qilgan "Urush borayotgan joylarda mudofaa va harbiy aloqa inshootlarini qurish, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan jamiki boshqa ishlarni bajarishga g'ayri rus aholining erkak qismini jalb etish to'g'risida"gi farmoniga asosan o'lkada 19 dan 31 yoshgacha bo'lgan erkaklarning safarbarlik ro'yxatlari tuzila boshladi. Mahalliy ma'muriyat vakillari mardikorlikka chaqiriqni boylik orttirish vositasiga aylantirib yubordi. Natijada bundan norozi bo'lgan xalq qo'zg'ola boshladi. Shunday harakatlardan biri 1916 yil G'uzor bekligida ham bo'lib o'tdi[9].

Mashhur yozuvchi va shoir Abdurauf Fitrat bu qo'zg'olon haqida quyidagilarni yozadi: "Taxminan 1912 yili Qarshida ayrim to'polonlar ro'y berganda O'rganjiy Olimxon bilan birga borib, ko'p kishini qatl ettirganlar. 1916 yili esa G'uzorning to'rasi Akramxon aholiga zulm o'tkazdi. Xalqning bolalarini askarlikka olib, sabr kosalarini toshiradi. Natijada, xalq isyonga taraddud ko'ra boshlaydi. Qozi rais va uning atrofidagi o'zining nufuzli kishilarini yuborib, g'alayon ko'targan xalqni tinchitadi"[10]

1916 yilda G'uzor bekligida yuz bergan g'alayonlar Turkiston o'lkasida yuz bergan milliy ozodlik harakatining bir ko'rinishi edi. Bu qo'zg'olonlar biron natijaga erisha olmasa-da, amirlikning ichki siyosatiga va chor Rossiyasining o'lkada olib borayotgan mustamlakachilik siyosatiga katta zarba berdi.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations)

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida G'uzor bekligi Buxoro amirlida eng katta nufuzga ega bo'lgan beklıklardan biri edi. Buning birinchi sababi beklilik siyosiy, harbiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo karvonlari tutashadigan hududda joylashgan bo'lsa, ikkinchidan beklilikni amir Muzaffarni o'g'li Said Akramxonni 45 yil boshqargani bo'ldi.

Said Akramxonga amir Muzaffar tomonidan katta vakolatlar berilgan bo'lib, Buxoro amirligining sharqiy bekliklarini G'uzor bekligi orqali boshqargan. Shuning uchun bu hudud amirlik boshqaruv tizimida siyosiy, iqtisodiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan.

1910 yilda amir Olimxon taxtga chiqqach, xalqqa to'lanadigan soliqlarni bir necha marta oshirishi natijasida G'uzor bekligidagi qiyin ahvolda yashaydigan aholi qatlamining ko'pchiligi, Sherobod bekligidagi kambag'al aholi vakillari bilan birgalikda Afg'onistonning shimoliy qismiga ko'chib o'tishadi.

Foydalangan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. ЎзМА Ф 126. Опис. 2. Д. 1329. С. 12
2. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистну и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. С.Петербург: 1882. С. 64.
3. ЎзМА Ф И-126. Опись. 1. Д. 1271. С. 39
4. ЎзМА Ф И-126. Опись. 1. Д.743. С. 39
5. ЎзМА Ф И-126. Опись. 1. Д. 1080. с. 25
6. ЎзМА Ф И-126. Опись. 1. Д.1077. С. 17
7. ЎзМА Ф И-126. Опись. 1. Д.1001. С. 37
- 8.Хакимова К.З. Крестьянство Бухарского Эмирата в конце XIX – начале XX в. Т., 1991. С. 43.
9. Fitrat A. Amir Olimxonning hukmronlik davri. Т., 1992. 26-27-betlar.
10. Jo'raev A. G'uzor tarixi. Toshkent., 2017. 78-bet.